



PARALLELIZMNING ASOSIY KO'RINISHLARI

Xudoynazarova Bahoroy Uktam qizi

SamDU filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida parallelizm hodisasining mohiyati, uning nutqdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Parallelizmning fikrni kuchaytirish, ta'kidlash hamda nutqa emotsional rang berishdagi vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, parallelizmning sintaktik jihatdan turlari – sintaktiv-konstruktiv parallelizmlar, izohlovchi xarakterdagi parallelizmlar hamda gap bo'laktari takroridan tuzilgan parallelizmlar misollar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: parallelizm, takror hodisasi, sintaktik parallelizm, predikativ parallelizm, nopredikativ parallelizm, otli parallelizm.

Til inson fikrini ifodalashda eng muhim vosita hisoblanadi. Nutq jarayonida fikrni kuchliroq, ta'sirchanroq yetkazish uchun turli usullardan foydalaniladi. Shunday vositalardan biri parallelizm yoki takror hodisasi. Parallelizm tilshunoslikda bir xil yoki o'xshash shakldagi so'z va birliklarning takror qo'llanishi orqali fikrni kuchaytirish, ta'kidlash hamda nutqqa emotsional rang berish vazifasini bajaradi.

O'zbek tilida parallelizm hodisasi juda keng tarqalgan bo'lib, u nutqning turli qatlamlarida uchraydi. Parallelizm fonetik, leksik, grammatik hamda stilistik jihatdan namoyon bo'lishi mumkin. Shuningdek, radif, anafora, epifora, alliteratsiya kabi badiiy vositalar ham takror hodisasining ayrim ko'rinishlari sifatida qaraladi.

Tilshunoslikda parallelizm hodisasi bilan bog'liq holda takror, repriza, pleonazm, tautologiya, leksik-grammatik parallelizm kabi terminlar ham qo'llanadi. Bu hodisa nutqning ta'sirchanligini oshiradi, fikrni ta'kidlashga xizmat qiladi hamda nutq oqimining uzluksizligini ta'minlaydi.

Ba'zi ishlarda "parallelizm" termini bir necha ergash gapli qo'shma gaplarda bir tipli birgalik ergashish usuliga nisbatan ham qo'llanadi.

A) mikroparallelizm – sodda gapda uyushgan bo'laklar orasidagi parallelizm (teng aloqa);

B) makroparallelizm – qo'shma gapda predikativ birliklar o'rtasidagi parallelizm.

Parallelizmlarni sintaktik jihatdan asosan uch turga ajratish mumkin:

1. Sintaktik-konstruktiv parallelizmlar
2. Izohlovchi xarakterdagi parallelizmlar
3. Gap bo'laklari takroridan tuzilgan parallelizmlar



Sintaktik-konstruktiv parallelizmlar. Bu turdagi parallelizmlarda so'zlar bir-biri bilan ergashish yo'li orqali bog'lanadi. Birgina so'zning takroridan tuzilgan butun konstruksiya bir sintaktik birlikni tashkil qiladi. Sintaktik-konstruktiv parallelizmlar ikki turga bo'linadi:

A) Predikativli parallelizmlar. Bu turda takrorlangan so'zlardan biri ega, ikkinchisi kesim vazifasida keladi

B) Nopredikativli parallelizmlar. Bu turda takrorlangan so'zlar bosh va ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi. Ular otli yoki fe'lli parallelizmlar bo'lishi mumkin.

Otli parallelizmlar ot asosidagi takrorlar orqali hosil bo'ladi. Masalan: O'ziyam yong'oqmisan-yong'oq edida! [4;5]

Fe'lli parallelizmlar. Fe'l asosidagi takrorlar orqali tuziladi va ko'pincha harakatning qat'iyligini yoki davomiyligini bildiradi. Masalan: Yiqilishga yiqilganman. [4;5]

Bunday parallelizmlar so'zlovchining qat'iy fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Izohlovchi xarakterdagi parallelizmlar. Bu turdagi parallelizmlarda bir so'z yoki gap bo'lagi takrorlanib, oldingi fikrni izohlash, aniqlash yoki kuchaytirish vazifasini bajaradi. Ko'pincha suhbat jarayonida nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun ishlatiladi. Masalan:

- Qo'shojon, jon ukam! Baraka topkur ukam, bo'ldi, sekinroq... [4;39]

Bu turdagi parallelizmlar nutqqa emotsional rang beradi va ta'kidlash vazifasini bajaradi.

Gap bo'laklari takroridan tuzilgan parallelizmlar. Bu turda gapning ayrim bo'laklari takrorlanib keladi. Bunda fikr yanada aniqroq va kuchliroq ifodalanadi.

Aniqlovchi takrorlanadi: Bittasi oq "Volga", bittasi yangi chiqqan qizil "Jiguli", eng ichkarida havorang "Zaporojes" turibdi. [4;29]

To'ldiruvchi takrorlanadi:

Xohlasam, beshni beshga qo'shsa, ellik besh bo'ladi deyman [4;20]; Ba'zan hazillashib jo'ramning yuzini silagim kelib qolsa, bir yuzini ikki qo'llab silayman [4;26];

Hol takrorlanadi:

Chalinmasa, deraza ortidan o'qituvchiga jahl aralash adovatli qarab qo'yadi-da, ikki biqinini kirib-chiqib, kirib-chiqib hirqillay boshlaydi [4;25]; Avval oyoqlarimga, keyin qo'llarimga, undan keyin yuz-ko'zimga tikanlar sanchila boshladi [4;35].

Gapda takrorlangan so'z faqat bitta vazifada kelmay, ikki xil vazifada kelganligini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan:

U o'zidan o'zi sudralib borayotgan g'aramga, g'aramning qir uchida



chordana qurib o'tirgan qop-qora bolaga, ya'ni menga ko'zi tushdi-yu, rangi dokadek oqarib ketdi [4;33](Ushbu gapda takrorlangan so'zning biri hol vazifasida, ikkinchisi esa aniqlovchi vazifasida kelgan).

Xulosa qilib aytganda, parallelizm(takror) hodisasi o'zbek tilida nutqning ta'sirchanligi va ifodaviyligini oshirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Takror orqali fikr yanada aniq, ravshan va kuchli ifodalanadi, nutqqa emotsional rang hamda ohangdorlik baxsh etadi. Shu sababli parallelizm nafaqat kundalik nutqda, balki badiiy adabiyotda ham keng qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси. – Самарқанд: СамДУ, 2009. – 111 Б.
2. Abdurahmonova D. Parallelizm hodisasi semantik-stilistik kategoriya sifatida. Экономика и социум, 2023
3. Shirinova N. Lisoniy parallelizm hodisasiga doir. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023
4. Hoshimov O'. "Ajdar"ning tavbasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016 – 424 b.